

G'AFUR G'ULOM – PUSHKIN ASARLARI TARJIMONI

Axmadov Dostonbek Xasanboy o'g'li

ToshDO'TAU talabasi

axmadovdostonbek01@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asr o'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri bo'lgan G'afur G'ulomning mutarjimlik mahorati tadqiq etiladi. Tadqiqot obyekti sifatida mashhur rus shoiri A. S. Pushkinning "Graf Nulin" poemasi tanlangan bo'lib, bu poema G'afur G'ulom tarjimaviy ijodining eng yetuk pallasida o'girilganligi bilan xarakterlidir. Maqolada poema qahramonlari bo'lmish graf Nulin va Natalya Pavlovna ruhiyatiga xos chizgilar tarjima jarayonida qay darajada saqlanganligi misollar yordamida tahlilga tortiladi.

Kalit so'zlar: mutarjim, tarjimaviy ijod, qahramon portreti, liro-epik asar tarjimasi, muallif kinoyasi.

GAFUR GULOM – TRANSLATOR OF PUSHKIN'S WORKS

Abstract: This article examines the translation skills of Gafur Gulom, one of the great representatives of Uzbek literature of the 20th century. The famous Russian poet A.S. Pushkin's poem "Count Nulin" was chosen as the object of research, which is characterized by the fact that it was written at the most mature stage of Gafur Gulom's translation work. In the article, the characters of the poem, Count Nulin and Natalya Pavlovna, are analyzed with the help of examples to what extent the features of the psyche are preserved in the translation process.

Keywords: translator, translation work, portrait of a hero, translation of a lyric-epic work, irony of the author.

G'afur G'ulom XX asr o'zbek she'riyati va tarjimachiligida munosib o'rniga ega ijodkorlardan biri. U butun ijodiy umri mobaynida tarjimon sifatida ham sermahsul ijod qilib, original asarlaridan kam bo'lmagan tarjimaviy meros qoldirgan. G'afur G'ulom-tarjimon asliyat muallifiga ayrim mutarjimlar kabi ko'r-ko'rona ergashmaydi. U o'zbek tilining boy imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda o'ziga xos tarjima prinsiplarini ishlab chiqdi, maktab yaratdi [Jo'rayev, 1982: 52].

G'afur G'ulom mashhur rus shoiri Aleksandr Sergeyevich Pushkinning "Graf Nulin" poemasi [Pushkin, 1949: 171], "Olegning foli to'g'risida qo'shiq", "Kavkaz", "Qish kechasi" [Pushkin, 1999: 126–132] kabi she'rlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Rus she'riyatining faxri bo'lmish Pushkindan qilingan ayni tarjimalar qiyosining o'ziyoq G'afur G'ulomning tarjimonlik mahorati haqida tugal xulosa bera oladi. U "Qish kechasi" she'rini o'girishda she'r mantig'idan kelib chiqib asosiy mazmunni berishga harakat qiladi. She'r 1942-yil "Vatan adabiyoti" darsligida chop etilgan, shundan bo'lsa kerak tarjimon "Kel, ichaylik..." misrasi

bilan boshlanadigan baytni tushirib qoldiradi. Gʻafur Gʻulom *“Olegning foli toʻgʻrisida qoʻshiq”* asarini xuddi originalga mos ravishda juda sodda, shirali va ravon til bilan oʻgiradiki, bu asarning tarjimasida ham “Vatan adabiyoti” darsligidan oʻrin oladi. Mutarjim sheʼrni bolalarga moslab oʻgiradi. Bu degani tarjimonning asl nusxaga nisbatan xiyonati, yaʼni aslyat mazmunidan chekinadi degani emas, albatta.

Gʻafur Gʻulomning satira va yumorga moyilligi, ayniqsa, *“Graf Nulin”* tarjimasida oʻziga xos hamohanglik kasb etgan. Bu oʻzbekcha uygʻunlik graf Nulinning xarakterini oʻzbekchada toʻlaqonli berishga imkon tugʻdirgan. Grafdagi takabburlik, kaltabinlikni Pushkin uning portretini chizish jarayonidayoq kitobxonga ishora qiladi. Pushkin tasviridagi grafning xatti-harakatini his etgan oʻquvchida tabassum uygʻonadi, uning ichki dunyosi bilan qiziq boshlaydi. Asarning bosh yoʻnalishini belgilaydigan xuddi shu vaziyat sinchkov mutarjim nazaridan qolmagan. U Nulinga xos, uning xarakterini namoyon etadigan epitet va oʻxshatishlarni oʻzbekchada shunday topib ishlatadiki, natijada oʻzbek oʻquvchisining koʻz oʻngida asar qahramoni – graf bor boʻy-basti bilan gavdalanadi.

Pushkinda	Gʻafur Gʻulomda
<p><i>Выходит барин на крыльцо; Всѣ, подбочась, обозревает, Его довольное лицо Приятной важностью сияет. Чекмень затянутый на нем, Турецкий нож за кушаком, За пазухой во фляжке ром, И рог на бронзовой цепочке</i> [Пушкин, 1977: 170].</p>	<p><i>Peshayvon oldiga chiqadi toʻra Qoʻli biqinida tashlaydi nazar, Hammasidan mamnun undagi chehra – Yoqimli gʻurur-la iljayib porlar. Yelkaga chakmonni qiygʻoch tashlagan, Turkcha pichogʻi kamarda – belda. Limmo-lim rom toʻla flyaga bilan Bronza zanjirli qadah qoʻynida</i> [Pushkin, 1949: 171].</p>

“Epik asarlar, yirik dostonlarni oʻgʻirganda asosiy eʼtibor voqealar tasvirini berishga, bor gʻoyani ifodalaydigan, mazmunni oydinlashtiradigan xarakterlarning tiniq va haqqoniyligini saqlashga qaratiladi. Lirik sheʼrlar tarjimasida boʻlsa ohang, ritm, intim kayfiyatni berish gʻoyat muhim masala hisoblanadi. Didaktik-falsafiy sheʼrlarni boshqa tilga oʻtkazganda esa ifodalanayotgan maʼno, axloqiy-tarbiyaviy muddaoni yuzaga chiqarish tarjimon oldiga qoʻyiladigan bosh talab boʻladi” [Salomov & Komilov, 1979: 32]. Gʻaybulli Salomov, Najmiddin Komilov kabi tarjima ilmining ustalari tomonidan sheʼriy asarlar tarjimasiga qoʻyilgan bu talab haqiqatga mos tushadi. Ayniqsa, epik asarlardagi mazmun qahramon xarakteri bilan bogʻliq boʻladi. Mutarjim epik asarning bosh yoʻnalishini asosiy qahramonlar taqdiridan izlashi va tarjima jarayonida bosh qahramon va unga xizmat qilayotgan boshqa personajlar, badiiy vositalarni diqqat markazida tutmogʻi shart.

“Graf Nulin” tarjimasidagi mutarjimning muvaffaqiyati ham xuddi shu masalani toʻgʻri va aniq hal qilganida koʻrinadi. Misol tariqasida yuqorida keltirilgan parchada bu hol yaqqol koʻzga tashlanadi. Bunda asosiy urgʻu grafning tashqi belgilariga, yaʼni uning xatti-harakatlariga berilgan. Biroq uning zamirida tashqi belgilariga xos boʻlgan ichki maʼnaviy dunyosi ham koʻrinadi. Bu esa Pushkinga xos boʻlgan xarakter yaratish prinsiplaridan biri.

U avvalo kitobxoniga o'z qahramonining to'la qiyofasini ochib bermaydi. Faqat kitobxonida qiziqish uyg'otadi, xolos. Chunki graf Pushkin tasvirida na turk, na rus va na fransuz. U – o'zligi yo'q bir shaxs [Гершензон, 1926: 43]. Bunday obrazlar tasvirini Pushkinning boshqa asarlarida ham uchratishimiz mumkin.

Ma'lumki, G'afur G'ulom ham yetuk shoir sifatida asar xarakterini yaxshi anglaydi va bu asarga oddiy tarjimon emas, teng huquqli ijodkor sifatida qaraydi va shu tariqa asar mazmuni asosida graf Nulin portretini mustaqil yaratadi. Tarjimaga to'la ma'noda erkin yondashib, qahramon portretini o'zbek kitobxoniga ta'sirchan qilib yetkazishga harakat qiladi. Bu epizodda graf o'zining xizmatkorlaridan va o'zidan mamnun. Ular grafning imosiga muntazir. Pushkin uni sof rus tasvirida bermaydi: belida turkcha pichoq, chakmonni sirib kiygan. Yuzida o'zidan va atrofida gildardan mamnuniyatlik belgisi. Bu xususiyatlarning o'zida muallif ko'zlagan maqsad bor. Tarjimon xuddi shu maqsadni asl nusxadagidek his etib mubolag'ador uslub bilan graf Nulin portretini chizadi. Mubolag'adorlik bu G'afur G'ulomning satirik va yumoristik asarlariga xos bo'lgan uslubdir. Tarjimon qo'llagan *"iljayib"*, *"chakmonni yelkaga qiyg'och tashlagan"* kabi so'z va iboralar Pushkin tasvirida bo'lmasa ham graf Nulinga xos bo'lgan xarakterni ochib ko'rsatadigan kalit so'zlardir.

O'zining shoirlik mahoratiga ishongan, xalq tilining bilimdoni bo'lgan ulug' alloma G'afur G'ulom o'z tarjimalarida ham kitobiy so'zlardan ko'ra xalqning iste'moldagi jonli tiliga ko'proq murojaat qiladi. U poemadagi graf, Natalya Pavlovna obrazlarini o'zbek kitobxoniga Pushkin tasviridagidek bera oldi. Natalya Pavlovna xarakteridagi o'ziga xos xususiyat o'zbek kitobxonini ko'z o'ngida yaqqol namoyon bo'ladi. Graf Nulin o'z tuprog'ida, o'z Vatanida zerikadi, Parijdan qaytganiga pushaymon yeydi. Natalya Pavlovna esa – ermaktalab xotin. U kitoblari ham kunni o'tkazish uchun o'qiydi. Graf Nulinning aravasi buzilib yo'lda pomeshchik ayoli Natalya Pavlovnaning uyiga qo'nishga majbur bo'ladi.

Mana, ular o'rtasidagi suhbat:

Pushkinda	G'afur G'ulomda
<p><i>"Какой писатель нынче в моде?"</i> – <i>Всё d'Arlincourt и Ламартин.</i> – <i>"У нас им также подражаю".</i> – <i>Нет? Право? так у нас умы</i> <i>Уж развиваться начинают.</i> <i>Дай бог, чтоб просветились мы! –</i> <i>"Как тальи носят?" – Очень низко.</i> <i>Почти до... вот по этим пор</i> [Пушкин, 1977: 179].</p>	<p><i>"Hozirda qay adib ko'proq modada?"</i> – <i>Hali ham d'Arlincourt Lomartinlar-da!</i> <i>"Bizda ham ularga ergashganlar bor",</i> – <i>Yog'e! Chinakammi, demak, bizda ham</i> <i>Aql va ma'rifat o'sib qoldi deng?</i> <i>Xudoyo, zehnimiz yoritib yubor!</i> <i>"Kiyimlarni qanday kiyadi ular"</i> <i>"Juda ham qisqa-da, xuddi... shungacha!"</i> [Pushkin, 1949: 178].</p>

Dasturxon boshida ular shu tariqa suhbatlashadi. Bunda kitobxon yuqorida keltirilgan portret tasviridagi graf Nulinning ichki olamiga kirib uni ancha-muncha anglaydi. Grafni mamnuniyat bilan mehmon qilib, u bilan suhbat qurayotgan bu ayolning savollarini o'qigan kitobxon Natalya Pavlovnaning ham qanday shaxs ekanligini anglay

boradi. Tarjimon Natalya Pavlovna qanday gapirsa shundayligicha ag‘daradi. Ayol nutqidagi asl nusxadagidek go‘llik ham, ajnabiylarga nisbatan bo‘lgan sig‘inishga o‘xshash tuyg‘u ham ko‘zga yaqqol tashlanadi. Eng muhimi shundaki, dialogda erkak nutqi bilan ayol nutqi bir-biridan ajralib turadi. Mutarjim ba‘zi tarjimonlardek bir xil ohang, bir xil shaklda o‘zbekchalashtirmaydi. Asar davomida biz Natalya Pavlovnaga grafning oshiq bo‘lib qolganini ko‘ramiz. Ma‘lumki, Pushkinning ko‘plab asarlari fosh etuvchi xarakterga ega. Bunda Natalya Pavlovna o‘zining enagasi (fransuz ayoli) o‘rgatgan odatlar bilan mehmonni kutadi. Xayrlashishda, hatto muloyim tabassum bilan grafning qo‘lini qattiqroq siqib ham qo‘yadi. Graf Natalya Pavlovnani ko‘rgach, sevimli Parijini ham unutadi. Chunki yuqorida ko‘rganimizdek, u ham Parij xonimlariga xos bo‘lishni orzu qiladi va ularga taqlid qilib yashaydi. Natalya Pavlovna suhbat orasida “Bizda ham ularga ergashganlar bor” deydi. U bu bilan birinchi galda o‘zini nazarda tutib aytadi. Grafning nazarida fransuzlarga ergashganlar aqlli va ma‘rifatli kishilar. Shu jumladan o‘zi ham. Ko‘ryapmizki, Pushkinning satirasi, achchiq kinoyasi xuddi shu nuqtalarda o‘z qahramonlarining kimligini ko‘rsatadi. G‘afur G‘ulom Pushkinga xos bo‘lgan bu kinoyalarni anglamasligi mumkin emasdi. Shuning uchun ham mutarjim qahramonlar xarakteriga alohida e‘tibor beradi.

Asliyat matnida	O‘zbekcha tarjimada
<p><i>“Неужто вправду я влюблен? Что, если можно?.. вот забавно! Однако ж это было б славно. Я, кажется, хозяйке мил”</i> [Пушкин, 1977: 180].</p>	<p>“Sevib qolganligim chinmi, nahotki? Xo‘sh, nima qiladi? – Juda qiziq gap, Ajib ish bo‘lardi, juda ham noyob; Men ham u bekaga yoqqan o‘xshayman” [Pushkin, 1949: 178].</p>

Natalya Pavlovna o‘zining butun xatti-harakatlari bilan o‘zini fransuzlarga yaqin qilib ko‘rsatmoqchi bo‘lsa, graf bu xatti-harakatlarni boshqacha tushunadi, ya‘ni pomeshchik ayoliga o‘zini yoqib qolgan hisoblaydi. Bu o‘rinda ikki xil xarakter, ikkisi ham noshud shaxslar xarakteri ekanligi kitobxonga ma‘lum bo‘ladi. Graf Nulinning ichki tuyg‘ulari o‘zbekchada chiroyli qilib ifodalangan. Talvasaga tushgan kishi xarakteri o‘quvchining ko‘z oldida yaqqol gavdalanadi. Agar biz o‘zbekchalashtirilgan parchani asl nusxa bilan qiyoslaydigan bo‘lsak, ma‘lum bir jihatlari to‘g‘ri kelmaydi. Biroq mutarjim asar yo‘nalishidan kelib chiqib xarakter mantig‘iga asoslanadi va sof o‘zbekcha jonli iboralar bilan shu mantiqni kitobxonga kuchaytirib yetkazadi. Bu ham bo‘lsa mutarjimning o‘ziga xos prinsiplaridan. “Bog‘chasaroy fontani” tarjimasida ham Usmon Nosir shu xil usuldan unumli foydalangan edi [Mamajonov, 1985: 166]. Bu xil uslubda o‘girishning ikki jihati bor: birinchidan, mutarjim o‘zi yangi iboralar, yangi epitelar ijod qilishi lozim. U kashf qilgan yangi iboralar, yangi epitelar tarjima qilinayotgan asarga va uning muallifi uslubiga zid emasligi shart; ikkinchidan, bu xil uslubda ag‘darish nihoyatda xavfli. Mutarjim o‘z-o‘zini va shu bilan kitobxonni ham aldab, asl nusxa muallifini arziyas bir ijodkor qilib qo‘yishi mumkin. Bugungi kundagi tarjimachiligimizdagi asosiy kamchiliklardan biri ham tarjimonlarning shu xil uslubda o‘girishga harakat qilganlarida. Chunki har bir ijodkor ham

o‘z saviyasini hisobga ola bermaydi. Shuning uchun ham Pushkin asarlarining bizdagi tarjimalarining ko‘pchiligi ko‘ngildagidek emas. Yuqoridagi misolimizda *“Однако это было б словно”* misrasini G‘afur G‘ulom *“Ajib ish bo‘lardi juda ham noyob”* tarzida o‘zbekchalashtirgan. Aslida *“Juda ham noyob”* birikmasi asl nusxada yo‘q. Tarjimon she‘r qonuniyati jihatidan bu birikmani oldingi aytilgan poetik fikrni ham tasdiqlash, ham kuchaytirish, ham ta‘kidlash ma‘nosida keltiradi. Shu bilan graf Nulindagi xarakterning yana bir qirrasini ravshanlashadi, kitobxon tasavvuri kengayadi. G‘afur G‘ulomdagi yumor natijada nishonga tegadi.

Grafning Natalya Pavlovnaning sevib qolganiga, uning ham o‘ziga ko‘ngli borligiga ishonch hosil qilgandan keyingi tasvirini Pushkin shunday beradi:

*Так иногда лукавый кот,
Жеманный баловень служанки,
За мышью крадется с лежанки:
Украдкой, медленно идет,
Полузажмурясь подступает,
Свернется в ком, хвостом играет,
Разинет когти хитрых лап
И вдруг бедняжку цап-царап
[Пушкин, 1977: 182].*

Shoir Graf Nulinning Natalya Pavlovna uxlab yotgan joyiga borish jarayonini tasvirlab o‘ltirmay bunga shunday epizodni kiritishni lozim ko‘radi. Biz poemaning kirishida o‘zidan mamnun takabbur bir shaxsni ko‘rgan edik. Endi bu parchada mushuk detali orqali qahramon xarakterining boshqa bir qirrasiga, ya‘ni uning ma‘naviy dunyosiga nazar tashlaymiz. Shu detalning o‘ziyoq graf Nulin ustidan achchiq kulgi uyg‘otadi, yuqori tabaqaga xos bo‘lgan umumma‘naviy qashshoqlikning bir belgisi sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekcha:

*Xizmatchi xotinlar erka o‘stirgan
Bir turli mug‘ombir, quv mushuklar ham
Sichqonni poylashda pusib boradi,
Ko‘zlarin qisgancha yaqinlashadi.
Miyovlab ohista qadam qo‘yadi,
Gohida g‘ujganak, quyrug‘in o‘ynab,
Ayyor panjasining tirnog‘in qayrab,
Xap etib sho‘rlikni tutib oladi
[Pushkin, 1949: 180].*

Biz bu parchaning o'zbekchasidagi mushuk tasvirining ham asl nusxadagidek nihoyatda hayotiy chiqqanligini ko'ramiz.

Biz bu tasvirda mushukni emas, bekaning yoniga pusib borayotgan go'l grafni xayolimizdan o'tkazamiz. Asardagi bu epizod satiraning ham, yumorning ham xarakterli nuqtalaridan biri bo'lib, mutarjimning mahorati ham bu parchani qahramon ruhiyatiga, asardagi satirik yo'nalishga hamohang o'girishdadir.

G'afur G'ulom tarjimon sifatida mahoratli, asl nusxani o'z mohiyati bilan anglab yetadigan qalam sohibidir. Biroq u poema tarjimasida ba'zan Pushkinga xos bo'lgan misralarga sayqal berishda sustlik qiladi, qofiyalarga uncha e'tibor beravermaydi.

Natalya Pavlovna graf bilan bo'lgan voqeani eriga kulib so'zlab beradi:

*Er bundan juda ham tahqirlandi-yu,
Graf ahmoq dedi, so'kdi bir nafas,
Og'zidan ona suti ketmagan hali,
Grafni dodlatib urardim balki,
Qopag'on itlarga talatardim dedi,
Yigirma uch yoshli qo'shni pomeschik
Bu gapni eshitib xo'p kular edi
[Pushkin, 1949: 180].*

Mana bu parcha asarning so'nggi nuqtasi bo'lib, Natalya Pavlovnaning ham ma'naviy dunyosining ochilish jarayoni. Pushkinda qofiyasiz misralar juda kam uchraydi, mutarjim esa bironta qofiyaga e'tibor bermaydi. Agar G'afur G'ulom poema tarjimasida qofiyaga e'tibor berib yana ham sayqal berganda edi, bu tarjimachilikda namunali ish bo'lar edi. Afsuski, G'afur G'ulomga xos bo'lgan topqirlik, tildagi shiradorlik asardagi satrlarning sustkashligi tufayli mahorat kasb etmagan. Bundan tashqari, ba'zi so'zlar aynan tarjima qilingani uchun ham misralar cho'zilib ketgan. Masalan: **"Молокосос"** so'zini tarjimon **"og'zidan ona suti ketmagan"** tarzida o'giradi. Bu so'zning o'zi bir misrani tashkil etgan. Bundan so'zlarning aynan tarjimasini berish shart emas, shu ma'noni ifodalaydigan boshqa so'zlarni ham berish mumkin edi. To'g'ri, "молокосос" so'ziga salbiy belgi bo'lsa, "ona suti og'zidan ketmagan" iborasida ham salbiylik bor. Mutarjim shuning uchun ham shu so'zni aynan tarjimasini olishni lozim topgan. Biroq aynan tarjima qilishdan mutarjimning ongli ravishda erkin tarjima qilishi yaxshiroqqa o'xshaydi.

Pushkin asarlarining abadiyati shundaki, ular insoniyatning umumxususiyatiga xos bo'lgan masalalarni o'z ichiga oladi. Uning asarlari har bir davr uchun ham asosiy masala bo'lib qolaveradi. "Graf Nulin" poemasidagi masala ham ayni bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Pushkin asarlarining qimmatini, bugungi kun uchun xizmati ham shunda bo'lsa kerak. G'afur G'ulom ham san'atkor sifatida bunday masalalarga befarq qaray olmasligi tabiiy. Umuman, "Graf Nulin" tarjimasini Pushkin asarlarining o'zbekcha nusxalari ichida ancha muvaffaqiyatli chiqqan deyishimizga asos bor. Umuman, G'afur G'ulomning

tarjimonlik faoliyati yosh mutarjimlar uchun ibrat bo'lgulik laboratoriya desak xato bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jo'rayev K. *Tarjima san'ati*. – Toshkent: “Fan”, 1982. – 60 b.
2. *O'zbekistonda badiiy tarjima tarixi (tarjima tarixidan lavhalar)*. – Toshkent: “Fan”, 1895. – 176 b.
3. Pushkin A. S. *Tanlangan asarlar. 4 tomlik. 3-tom*. – Toshkent: O'zdavnashr, 1949. – 280b.
4. Pushkin A. S. *Tanlangan asarlar*. – T.: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1999. – 384 b.
5. Salomov G', Komilov N. *Do'stlik ko'priklari*. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979. – 224 b.
6. Гершензон М. О. *Статьи о Пушкине*. – Ленинград: Academia, 1926. – 134 стр.
7. Пушкин А. С. *Собрание сочинений в 10 томах. Том 4*. – Л.: Наука, 1977. – 440 стр.